



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 56 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'lichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna

Qarshi shahar 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi,
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta'limning mazmun-mohiyati, turlari, fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdagi o'rni hamda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, integratsiyalashgan darslarning maqsad va vazifalari, ularni tashkil etish usullari hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tahlillar natijasida integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni anglash va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashda muhim pedagogik vosita ekani aniqlangan. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini faollashtirishi, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishi hamda kompetensiyaviy ta'lim talablariga mos kelishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan ta'lim, boshlang'ich sinf, pedagogik aspektlar, fanlararo integratsiya, kompetensiya, didaktik yondashuv, o'quv jarayoni, tizimli fikrlash, metodika, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The pedagogical aspects of integrated learning in primary education are analyzed from scientific-theoretical and methodological perspectives. The essence, types, and significance of integrated learning in ensuring interdisciplinary connections and developing students' competencies are highlighted. In addition, the goals and objectives of integrated lessons, methods of their organization, and possibilities of application in primary education are examined. The results show that integrated learning serves as an effective pedagogical tool for developing a holistic worldview, fostering independent thinking, understanding interdisciplinary relationships, and strengthening practical skills among students. Furthermore, this approach enhances the learning process, increases students' interest in lessons, and meets the requirements of competency-based education.

Key words: integrated learning, primary education, pedagogical aspects, interdisciplinary integration, competency, didactic approach, learning process, systems thinking, methodology, educational effectiveness.

Аннотация: Рассматриваются педагогические аспекты интегрированного обучения в начальных классах с научно-теоретической и методической точек зрения. Раскрываются сущность и содержание интегрированного обучения, его виды, роль в обеспечении межпредметных связей, а также значение в формировании компетенций учащихся. Проанализированы цели и задачи интегрированных уроков, методы их организации и возможности применения в системе начального образования. В результате исследования установлено, что интегрированное обучение является эффективным педагогическим средством формирования целостного мировоззрения, развития самостоятельного мышления, осознания межпредметных связей и закрепления практических навыков у учащихся. Доказано, что данный подход способствует активизации учебного процесса, повышению интереса к занятиям и соответствует требованиям компетентностного образования.

Ключевые слова: интегрированное обучение, начальная школа, педагогические аспекты, межпредметная интеграция, компетенция, дидактический подход, учебный процесс, системное мышление, методика, эффективность обучения.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri – o'quvchilarda nafaqat bilim, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini ham shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi shaxsning keyingi ta'limiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajarishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu davrda beriladigan bilimlar tizimli, hayotiy va o'zaro bog'liq bo'lishi zarur.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Chunki an'anaviy fanlarni alohida-alohida o'qitish o'rniga, ularni o'zaro bog'liq holda o'rganish o'quvchilarda yaxlit



dunyoqarashni shakllantirishga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga hamda bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan ta'lim aynan shu jihati bilan zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuvni samarali qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Chunki bola bir vaqtning o'zida turli fanlar orasidagi bog'liqlikni ko'ra boshlaydi va bu uning tafakkurini kengaytiradi. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida mustaqil o'qish va ijodiy yondashuv uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlarini o'rganish, uning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur ishda aynan shu masalalar yoritilib, integratsiyalashgan ta'limning mazmuni, usullari va pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlarini o'rganishda mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar shuni ko'rsatadiki, integratsiya ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va o'quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Xususan, Yu.O. Toshmatova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarning mazmuni va pedagogik asoslari keng yoritilgan bo'lib, unda fanlararo aloqadorlik o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirishiga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishiga hamda darsga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, integratsiyalashgan yondashuv o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, S.M. Drake va R.C. Burnsning ilmiy qarashlarida integratsiyalashgan ta'lim "interdisciplinary teaching" sifatida talqin qilinib, u o'quvchilarda muammoni turli fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv ta'lim mazmunini hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirishga yordam beradi.

J. Beane tadqiqotlarida esa integratsiyalashgan ta'lim demokratik ta'lim modeli sifatida ko'rib chiqilib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Muallif integratsiyani faqat fanlarni birlashtirish emas, balki ta'lim mazmunini hayot bilan uyg'unlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi.

UNESCO materiallarida ham zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi sifatida bilimlarni yodlash emas, balki ularni qo'llay olish va real hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa integratsiyalashgan ta'limning global ta'lim tendensiyalariga mos kelishini ko'rsatadi.

Shuningdek, mahalliy olimlar, jumladan, A.V. Farmanov va boshqa pedagog-tadqiqotchilar ishlarida integratsiyalashgan ta'limning didaktik asoslari, fanlararo aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mosligi keng tahlil qilingan. Ularning fikricha, integratsiya o'quv jarayonida tizimli fikrlashni shakllantirish va bilimlarni yaxlit holda qabul qilishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda nazariy, amaliy va tahliliy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi integratsiyalashgan ta'limning mazmun-mohiyatini ochib berish, uning fanlararo bog'liqlikni ta'minlashdagi o'rni va boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot jarayonida ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish, uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash va ularning amaliy ta'lim jarayonidagi ifodasini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy ilmiy bilish tamoyillari, pedagogik tizimli yondashuv, shuningdek, zamonaviy ta'limda integratsiyalashgan yondashuv konsepsiyalari tashkil etdi. Ushbu metodologik asos ta'lim jarayonini faqat alohida fanlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq, yaxlit va dinamik tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv ham tadqiqotning muhim metodologik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda bilim, ko'nikma va amaliy faoliyatni uyg'un shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlardan keng foydalanildi. Nazariy tahlil metodi orqali mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o'rganilib, integratsiyalashgan ta'limning nazariy asoslari, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy talqini chuqur tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida an'anaviy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi o'zaro solishtirildi, ularning afzalliklari, kamchiliklari hamda pedagogik samaradorligi aniqlab berildi. Kuzatish metodi asosida boshlang'ich sinf dars jarayonlari o'rganilib, o'quvchilarning faolligi, darsga bo'lgan qiziqishi, bilimni o'zlashtirish darajasi va o'qituvchi–o'quvchi o'zaro hamkorligi tahlil qilindi.

Suhbat va so'rovnoma metodlari orqali esa o'qituvchilar va o'quvchilarning integratsiyalashgan ta'lim haqidagi fikrlari, ularning dars jarayoniga bo'lgan munosabati hamda ushbu yondashuvning samaradorligi yuzasidan amaliy ma'lumotlar to'plandi. Tajriba-sinov metodi esa integratsiyalashgan darslarni real ta'lim jarayonida qo'llash orqali ularning o'quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, tadqiqotda kuzatuv natijalari va amaliy tajribalar asosida olingan ma'lumotlar tizimli tahlil qilinib, ularning ilmiy xulosalarga olib keluvchi jihatlari umumlashtirildi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi, ijodiy yondashuvi va fanlararo bog'liqlikni tushunish darajasi sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Shu asosda tadqiqot metodologiyasi boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuvning pedagogik samaradorligini aniqlash, uni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini asoslash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlarini o'rganish jarayonida olib borilgan kuzatishlar, tajriba-sinov ishlari va so'rovnomalar natijalari asosida bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tahlil jarayoni integratsiyalashgan darslarning o'quvchilarning bilim darajasi, faolligi, mustaqil fikrlashi hamda kompetensiyalarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga qaratildi.

Tajriba ishlari 4-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borilib, ularga integratsiyalashgan va an'anaviy darslar asosida ta'lim berildi. Masalan, "Suv – hayot manbai" mavzusi integratsiyalashgan dars sifatida o'tilganda, o'quvchilar bir vaqtning o'zida tabiatshunoslikda suvning ahamiyatini, matematikada suv sarfini hisoblashni va ona tilida suv haqida matn tuzishni bajardilar. Natijada o'quvchilarda mavzuga kompleks yondashuv shakllandi va ular suvning faqat tabiiy resurs emas, balki iqtisodiy va hayotiy ahamiyatga ega ekanligini chuqurroq anglab yetdilar.

Yana bir misolda "Fasllar almashinuvi" mavzusi integratsiyalashgan tarzda o'tilib, ona tili, tasviriy san'at va tabiatshunoslik fanlari birlashtirildi. O'quvchilar fasllar haqida hikoya tuzish, rasm chizish va tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish orqali bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashdi. Bu jarayon ularning ijodiy fikrlashi va tasavvur doirasining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, integratsiyalashgan ta'lim qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgan. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy darslarda faol ishtirok etmagan o'quvchilar ham integratsiyalashgan darslarda jamoaviy ishlarga faol qo'shilgan. Masalan, "Matematika ertagi" darsida bolalar matematik masalalarni ertak qahramonlari orqali yechish jarayonida katta qiziqish bilan ishtirok etdilar va murakkab misollarni ham oson tushuna boshladilar.

Shuningdek, test natijalari va og'zaki so'rovlar tahlili shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan ta'limdan foydalanган guruhlarda bilimlarni o'zlashtirish darajasi o'rtacha 10–15 % ga oshgan. O'quvchilar fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tezroq anglay boshlagan va bir fan doirasida o'rgangan bilimlarini boshqa fanlarda qo'llash ko'nikmasi rivojlangan. Masalan, tabiatshunoslikda o'rgangan "o'simliklarning o'sishi" mavzusi asosida ular matematika darsida o'sish jadvalini tuzish, ona tilida esa jarayonni tasvirlab yozish topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarganlar.

O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida ham integratsiyalashgan ta'limning ijobiy jihatlari tasdiqlandi. Ularning fikricha, bunday yondashuv dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning diqqatini jamlashni osonlashtiradi hamda sinfda faol muhokama muhitini yaratadi. Shu bilan birga, o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va jamoada ishlash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangan.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Ayniqsa, real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar bolalarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va o'qish jarayonini qiziqarli faoliyatga aylantiradi. Masalan, "Sog'lom turmush tarzi" mavzusida o'quvchilar kunlik rejim tuzish, sport mashqlarini hisoblash va sog'lom ovqatlanish bo'yicha plakat tayyorlash orqali bilimni amaliyot bilan bog'lashdi.

Olib borilgan tahlil va tajribalar integratsiyalashgan ta'limning boshlang'ich sinflarda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Bu yondashuv o'quvchilarning bilimni chuqur o'zlashtirishi, mantiqiy va ijodiy fikrlashining rivojlanishi hamda fanlararo bog'liqlikni anglashida muhim rol o'ynaydi.



1-jadval: Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuvlarning pedagogik tahlili

Integratsiya turi	Mazmuni (qisqacha tavsif)	Pedagogik maqsad	Amaliy misollar (boshlang'ich sinf)	Kutiladigan natija
Maqsad va muammolar asosidagi integratsiya	Bir nechta fanlarni umumiy maqsad va muammo atrofida birlashtirish	O'quvchilarda muammoli fikrlash va tizimli yondashuvni shakllantirish	"Tabiatni asrash" mavzusida o'qish, tabiatshunoslik va rasm darslarini birlashtirish	Ekologik ong, muammoga yechim topish ko'nikmasi
Fanlararo integratsiya	Turli fanlar (o'qish, tabiat, mehnat) o'rtasidagi bog'liqlik	Bilimlarni yaxlit tizim sifatida qabul qilish	Matn o'qish + tabiat hodisalarini tasvirlash + amaliy mehnat	Bilimlarning amaliy qo'llanilishi oshadi
Chegaradosh fanlar integratsiyasi	Bir-biriga yaqin fanlarni birlashtirish (biologiya, geografiya elementlari)	Ilmiy tushunchalarni chuqurlashtirish	"Yil fasllari" mavzusida tabiat + rasm + o'qish	Tabiiy-ilmiy tasavvur kengayadi
Faoliyat asosidagi integratsiya	O'quv faoliyati turlari (kuzatish, tajriba, tahlil) asosida	Mustaqil ishlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish	Urug' ekish tajribasi, kuzatuv kundaligi yuritish	Amaliy bilim va mustaqil fikrlash
Kompleks obyektlar asosidagi integratsiya	Bitta obyektga turli fan nuqtayi nazaridan o'rganish	Yaxlit dunyoqarashni shakllantirish	"Yer", "inson", "tabiat" mavzulari	Tizimli va keng dunyoqarash
Muammoli integratsiya	Global yoki lokal muammolar asosida	Analitik fikrlash va yechim topish	"Suvni tejash", "atrof-muhit ifloslanishi"	Ijtimoiy mas'uliyatni oshirish

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish bugungi zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilarda dunyo haqidagi tasavvurlar hali yaxlit shakllanmagan bo'lib, ular bilimlarni alohida fanlar ko'rinishida emas, balki hayotiy hodisalar va umumiy tushunchalar orqali yaxshiroq qabul qiladilar. Shu nuqtayi nazardan, integratsiya ta'lim jarayonini tabiiy, mantiqiy va o'quvchining yosh psixologiyasiga mos holga keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki ularning mantiqiy fikrlashini, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini va ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda bilimlarni bir tizim sifatida qabul qilish, ularni real hayot bilan bog'lash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, metodik tayyorgarlik va ijodkorlikni talab qiladi. Chunki turli fan elementlarini birlashtirish, ularni yagona maqsadga yo'naltirish va o'quvchilarga tushunarli shaklda yetkazish muhim didaktik yondashuvni talab etadi. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni joriy etish o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlovchi, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli integratsiya zamonaviy boshlang'ich ta'limning muhim pedagogik tamoyillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarda bilimlarni yaxlit holda idrok etish, fanlararo bog'liqlikni anglash, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali vosita ekani aniqlandi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda fanlarni o'zaro bog'liq tarzda o'qitish ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ta'lim samaradorligini kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini faqat nazariy bilim berish bilan cheklab qo'ymasdan, uni amaliy faoliyat, kuzatish, tajriba, muammoli vaziyat va ijodiy topshiriqlar bilan boyitadi. Natijada o'quvchi o'rganilayotgan mavzuni bir fan doirasida emas, balki kengroq, tizimli va hayotiy mazmunda anglay boshlaydi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlik, ijodkorlik va fanlararo aloqadorlikni to'g'ri tashkil etish mahoratini talab qiladi. Dars jarayonida turli fan elementlarini maqsadga muvofiq uyg'unlashtirish, o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga mos topshiriqlar tanlash va natijalarni tizimli baholash ta'lim sifati oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limni samarali tashkil etish pedagogik jarayonning ilmiy-metodik asosda rejalashtirilishini talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda fanlararo bog'liqlik aniq maqsad va mavzu asosida rejalashtirilishi lozim.
2. O'qituvchilar uchun integratsiyalashgan ta'lim metodikasi bo'yicha amaliy seminarlar, treninglar va metodik qo'llanmalar tizimli ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
3. Integratsiyalashgan darslarda o'quvchilarning faolligini oshiruvchi muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, guruhli ishlar, loyiha va tajriba metodlaridan keng foydalanish zarur.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mavzular hayotiy misollar, kuzatishlar va amaliy mashg'ulotlar bilan boyitilishi kerak.
5. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda faqat nazariy natijalar emas, balki amaliy faoliyat, mustaqil fikrlash va fanlararo bog'liqlikni anglash darajasi ham hisobga olinishi lozim.
6. Integratsiyalashgan ta'limni samarali joriy etish uchun o'quv dasturlari, dars ishlanmalari va metodik materiallarda fanlararo aloqadorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, integratsiyalashgan ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, bilimlarni amaliyot bilan bog'lash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Shu sababli ushbu yondashuvni boshlang'ich ta'lim amaliyotida izchil qo'llash zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablariga to'liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Samarin Y.A. – Psixologik asoslar va assotsiativ tafakkur nazariyasi. Moskva.
2. Skatkin M.N. – Didaktika va ta'lim jarayoni. Moskva.
3. Lerner I.Ya. – Ta'lim mazmuni va o'qitish metodlari. Moskva.
4. Babanskiy Yu.K. – Pedagogika: o'quv jarayonini optimallashtirish. Moskva.
5. Zverev I.D. – Fanlararo aloqalar va didaktik integratsiya. Moskva.
6. Maksimova V.N. – Boshlang'ich ta'lim didaktikasi. Moskva.
7. Baranov S.P. – Pedagogika asoslari. Moskva.
8. Kabanova-Meller E.N. – O'quvchilarning aqliy rivojlanishi. Moskva.
9. Talizina N.F. – Psixologik pedagogika asoslari. Moskva.
10. Samarina Y.A. – Tafakkur va bilimlar tizimi. Moskva.
11. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
12. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. Ilmiy-metodik maqolalar to'plami.
13. Gerd A.Y. – Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi.
14. Ushinskiy K.D. – Pedagogik asarlar to'plami.
15. Komenskiy Y.A. – Buyuk didaktika.
16. Pestalossi I.G. – Ta'lim va tarbiya nazariyasi.
17. Lokk D. – Inson ongiga oid qarashlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.